Qabul qilindi: 12-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 18-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 24-sentabr 2026-yil

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TARBIYA DARSLARINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jo‘rayeva Shahlo Ilhomjon qizi
Far‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0008-1377-452X
ScirnceID: MFR – 0926 - 0244



Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda tarbiya darslarini individual yondashuv asosida tashkil etish kompetensiyasini rivojlantirish muammosi tahlil qilingan. Muallif zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida individuallashtirish tamoyilining tarbiyaviy jarayondagi o‘rnini, uning tarkibiy komponentlarini hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni ushbu kompetensiyaga tayyorlashning nazariy-metodik asoslarini yoritadi. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida “Pedagogika”, “Tarbiyaviy ish metodikasi” fanlarini o‘qitishda hamda malaka oshirish kurslarida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: individual yondashuv, tarbiya darsi, kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik mahorat, differensiatsiya, tarbiyaviy jarayon.

Аннотация. В статье анализируется проблема развития у будущих учителей компетентности организации воспитательных занятий на основе индивидуального подхода. Автор раскрывает место принципа индивидуализации в воспитательном процессе современной педагогической системы образования, его структурные компоненты, а также теоретико-методические основы подготовки будущих педагогов к данной компетентности. Результаты могут быть использованы при преподавании дисциплин «Педагогика», «Методика воспитательной работы» в высших педагогических учебных заведениях, а также на курсах повышения квалификации.

Ключевые слова: индивидуальный подход, воспитательное занятие, компетентность, будущий учитель, педагогическое мастерство, дифференциация, воспитательный процесс.

Abstract. This article analyzes the problem of developing prospective teachers’ competence in organizing educational (upbringing) lessons based on an individual approach. The author reveals the place of the individualization principle in the upbringing process of the modern pedagogical education system, its structural components, and the theoretical-methodological foundations of preparing future teachers for this competence. The results can be applied in teaching “Pedagogy” and “Methodology of Educational Work” courses in higher pedagogical institutions, as well as in professional development courses.

Keywords: individual approach, upbringing lesson, competence, prospective teacher, pedagogical skill, differentiation, educational process.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi tub islohotlar yosh avlodni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ygan. Bu murakkab va mas’uliyatli vazifani amalga oshirishda hal qiluvchi o‘rinni ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o‘qituvchi egallaydi, chunki tarbiya jarayonining samaradorligi bevosita pedagogning kasbiy kompetentligiga, xususan, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatiga bog‘liqdir. Zamonaviy pedagogika fanida shaxsga yo‘naltirilgan va individuallashtirilgan yondashuvlar tarbiya nazariyasi va amaliyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda, zero, har bir o‘quvchi o‘ziga xos temperament, qiziqish, oilaviy muhit va ijtimoiy tajribaga ega bo‘lib, ularga bir xil, unifikatsiyalashgan tarbiyaviy usullar bilan yondashish kutilgan natijani bermaydi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni hali oliy ta’lim bosqichidayoq individual yondashuv asosida tarbiya darslarini loyihalashtirish, tashkil etish va boshqarish kompetensiyasi bilan qurollantirish dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu muammoning dolzarbligi, birinchidan, jamiyatning tobora

individuallashib borayotgan ijtimoiy tuzilishi, ikkinchidan, raqamli avlod o‘quvchilarining psixologik xususiyatlaridagi farqlanish, uchinchidan esa oliy pedagogik ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlar metodikasini o‘qitishning ko‘pincha umumiy, “o‘rtacha o‘quvchi”ga mo‘ljallangan modellarga asoslanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilar amaliy pedagogik faoliyatga kirishganda ko‘pincha individual yondashuvni nazariy jihatdan tushunsalar-da, uni real tarbiya darsi jarayonida qo‘llashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Xususan, Niderlandiya olimlari K. Meutstege, M. van Geel va A. Vissxerning tadqiqotida ta’kidlanishicha, tajribali o‘qituvchilarning o‘zlari ham differensiallashtirilgan ta’lim va tarbiyani samarali tashkil etishda murakkabliklarga duch kelishadi, bu esa bo‘lajak mutaxassislar uchun bu ko‘nikmani shakllantirish yanada muhim ekanligini ko‘rsatadi [8; 2]. Ushbu fikr shuni anglatadiki, individual yondashuv shunchaki nazariy bilim emas, balki amaliy, refleksiv va doimiy takomillashtirishni talab qiluvchi murakkab kasbiy ko‘nikma hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday kompetensiyaning shakllanmaganligi nafaqat o‘quv, balki tarbiyaviy natijalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki tarbiya — bu ko‘pincha o‘quvchining ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvori bilan bog‘liq nozik jarayon bo‘lib, unda shablon usullar samara bermaydi. Xorvatiyalik tadqiqotchilar J. Kudek Miroshevich va M. Radetich-Paich o‘tkazgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, sinf rahbarlari fan o‘qituvchilariga qaraganda individuallashtirilgan usullarni ko‘proq qo‘llashadi, biroq yuqori sinflarda bu amaliyot sezilarli darajada kamayadi [2; 112]. Bu natija tarbiyaviy individuallashtirish ko‘nikmasining barqaror emasligini, balki kontekstga, pedagogning tajribasi va tayyorgarlik darajasiga bog‘liq holda o‘zgaruvchan xususiyat kasb etishini ko‘rsatadi, demak, bu kompetensiyani hali talabalik davridayoq mustahkam shakllantirish zarurati yanada ortadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hisobga olgan holda, mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda tarbiya darslarini individual yondashuv asosida tashkil etish kompetensiyasining mazmun-mohiyatini, tarkibiy komponentlarini hamda uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, MDH va

Yevropa olimlarining so‘nggi tadqiqotlari asosida ilmiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, “individual yondashuv asosida tarbiya darsini tashkil etish kompetensiyasi” tushunchasining mazmunini aniqlashtirish; ikkinchidan, ushbu kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini (kognitiv, motivatsion-qadriyatli, texnologik-amaliy, reflektiv) ajratib ko‘rsatish; uchinchidan, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida ushbu kompetensiyani rivojlantirishning samarali usul va vositalarini tavsiya etish. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda birinchi marta individual yondashuv asosidagi tarbiyaviy kompetensiya tushunchasi xalqaro tadqiqotlar kontekstida tizimlashtirilib, milliy pedagogik ta’lim ehtiyojlariga moslashtirilgan holda talqin etiladi.

METODLAR

Tadqiqotda nazariy-analitik metodlar — ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot manbai sifatida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Rossiya, Belarusiya, Xorvatiya, Niderlandiya, Fransiya, Ruminiya, Buyuk Britaniya, Malayziya va Laos olimlarining 2021–2024-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy maqolalari, dissertatsiya tadqiqotlari va konferensiya materiallari tanlab olindi. Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: mavzuning “individual yondashuv”, “tarbiyaviy kompetensiya”, “bo‘lajak o‘qituvchi”, “differensiatsiya” kalit tushunchalariga mos kelishi, nashr etilgan yilining so‘nggi besh yil ichida bo‘lishi hamda tadqiqotning ilmiy-metodologik asoslanganligi. Kontent-tahlil metodi yordamida turli mamlakatlar tadqiqotlarida individual yondashuv tushunchasiga berilgan ta’riflar qiyoslandi va ularning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Shuningdek, struktura-funksional tahlil metodidan foydalanib, tarbiya darslarini individual yondashuv asosida tashkil etish kompetensiyasining tarkibiy komponentlari modellashtirildi. Tadqiqotda induktiv-deduktiv mulohaza yuritish usuli qo‘llanildi: dastlab xususiy holatlar (aniq tadqiqotlarda qayd etilgan natijalar) tahlil qilinib, so‘ngra ulardan umumiy xulosalar chiqarildi. Bundan tashqari, chet el tadqiqotlarida qo‘llanilgan empirik metodlar (so‘rovnoma, kuzatuv, kognitiv vazifa tahlili) natijalarini mahalliy pedagogik amaliyot kontekstida talqin qilishda qiyosiy-pedagogik tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot

natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta’minlashga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv tushunchasi tarbiya nazariyasida uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, uning bo‘lajak o‘qituvchilar kompetensiyasi sifatida talqin etilishi nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Qozog‘istonlik tadqiqotchi Sh.J. Kolumbayevaning fikricha, zamonaviy pedagog kadrlarni tarbiyaviy ishga tayyorlashning metodologik strategiyasi shaxsga yo‘naltirilgan, kompetentsiyaviy va etnopedagogik yondashuvlarning yetakchi g‘oyalariga asoslangan poliparadigmal kontseptsiya bo‘lishi lozim [1; 20]. Ushbu qarash muhim ahamiyatga ega, chunki u individual yondashuvni yagona, izolyatsiyalangan metod sifatida emas, balki bir nechta metodologik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi natijasida vujudga keladigan kompleks kasbiy pozitsiya sifatida talqin qiladi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashda faqat “individual xususiyatlarni hisobga olish” haqida umumiy tushuncha berish yetarli emas, balki uni milliy tarbiya, gumanistik pedagogika va kompetentsiyaviy yondashuv tizimida kompleks shakllantirish zarur. Shu bilan birga, Xorvatiya olimlari J. Kudek Miroshevich va M. Radetich-Paichning tadqiqotida individuallashtirilgan yondashuv differensial ta’lim bilan chambarchas bog‘liqligi, biroq ular bir xil tushuncha emasligi ta’kidlanadi: differensiatsiya guruhlar darajasida, individuallashtirish esa har bir o‘quvchi darajasida amalga oshiriladi [2; 109]. Bu farqlanish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun metodik jihatdan muhim, chunki ko‘pincha amaliyotda ikkala tushuncha aralashtirib yuboriladi, natijada tarbiyaviy tadbirlar faqat “kuchli” va “zaif” guruhlarga bo‘lish darajasida qolib ketadi, har bir shaxsning o‘ziga xosligi e’tibordan chetda qoladi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning ishlarida ham ushbu muammoga alohida e’tibor qaratilgan. D. Yuldashevaning tadqiqotida ta’kidlanishicha, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ularning samarali muloqotga kirisha olish, jamoada ishlash va madaniyatlararo aloqalarni yurita olish ko‘nikmalari majmuasini shakllantirishni talab qiladi [13; 232]. Ushbu fikr tarbiya darslarini individual yondashuv asosida tashkil etish kompetensiyasining

muhim komponenti — kommunikativ-refleksiv komponentni ochib beradi, zero, o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan individual muloqot yo‘lga qo‘ymasa, uning ichki dunyosini, ehtiyoj va qiziqishlarini bilib olishi mumkin emas. M.E. Yuldashevaning fikricha esa, kompetentli yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda kasbiy kompetentlikning tuzilmaviy komponentlarini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, jumladan maxsus, ijtimoiy va individual kompetentsiyalar alohida ajratiladi [16; 248]. Bu yerda “individual kompetentsiya” alohida tarkibiy qism sifatida ko‘rsatilishi diqqatga sazovor, chunki bu bo‘lajak o‘qituvchining nafaqat o‘quvchilarga, balki o‘zining kasbiy faoliyatiga ham individual-ijodiy yondashuv olib borish qobiliyatini anglatadi. N.G. Xamdamovning tadqiqotida esa bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyot va ilg‘or tajribaning ahamiyati ta’kidlanadi, chunki nazariy bilim amaliy vaziyatlarda sinovdan o‘tmasa, u individual yondashuvni real qo‘llash ko‘nikmasiga aylanmaydi [12; 910]. Ushbu uch tadqiqot birgalikda tarbiyaviy kompetensiyaning kognitiv, kommunikativ va amaliy-texnologik komponentlarini tizimli tarzda ko‘rsatib beradi.

Tarbiya darslarining o‘ziga xosligi shundaki, ular nafaqat bilim, balki qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda individuallashtirish yanada nozik xususiyat kasb etadi. Ukrainalik olimlar L. Kondrashova va hamkasblarining tadqiqotida ko‘rsatilishicha, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda talabamarkazlashgan (student-centrism) tamoyillarga asoslangan strategiya ularning kasbiy faoliyatga axloqiy-psixologik tayyorligini shakllantirishda ijobiy natija beradi, bunda shaxsga yo‘naltirilgan individuallashtirish markaziy o‘rin tutadi [4; 3]. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, tarbiyaviy kompetensiyaning shakllanishi faqat metodik bilim bilan emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining o‘zi ta’lim jarayonida qanday munosabatda bo‘lganligi, ya’ni “individual yondashuv orqali tarbiyalanganlik” tajribasi bilan ham bog‘liq. Xitoylik va malayziyalik tadqiqotchilar Q. Zhang va hamkasblarining tahliliga ko‘ra, o‘qituvchilarning tarbiya (axloq ta’limi) dasturiga nisbatan qarashlari ularning ushbu dasturni amalga oshirish uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, shu sababli o‘qituvchilarning individual pedagogik e’tiqodi

tarbiyaviy amaliyotning muhim omili hisoblanadi [5; 2]. Ruminiyalik tadqiqotchi A. Popovichining so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, so‘ralgan 161 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining 35,4 foizi o‘zlarining tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirish uchun tegishli boshlang‘ich tayyorgarlik olmaganliklarini ta’kidlagan [6; 2]. Britaniyalik tadqiqotchi M.Z. Tanriverdi Gokcelining doktorlik dissertatsiyasida ingliz maktablari o‘qituvchilarining tarbiya (axloq) ta’limiga oid tushunchalari tahlil qilinib, ko‘pchilik o‘qituvchilar buni individual yondashuvsiz, barcha o‘quvchilarga baravar taqdim etiluvchi umumiy fazilatlar majmuasi sifatida tushunishlari aniqlangan [7; 45]. Bu ikki natija nihoyatda muhim signal beradi: hatto Yevropa mamlakatlarida ham bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga, xususan individuallashtirilgan tarbiyaviy ishga tayyorlash tizimida jiddiy bo‘shliqlar mavjud, demak bu muammo umumjahon xarakteriga ega.

Individual yondashuv asosidagi tarbiyaviy kompetensiyani shakllantirish metodikasi bo‘yicha eng qimmatli tajribalardan biri Niderlandiya olimlari tomonidan taqdim etilgan. K. Meutstege va hamkasblarining kognitiv vazifa tahlili natijalariga ko‘ra, tajribali o‘qituvchilar differensiallashtirilgan ta’lim va tarbiyani amalga oshirishda bir qator maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak, jumladan o‘quvchining ehtiyojlarini diagnostika qilish, mos pedagogik strategiyani tanlash va uni real vaqt rejimida moslashtirish qobiliyati [8; 1]. Ushbu natija bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishda alohida ahamiyatga ega, chunki u individual yondashuvni “tug‘ma qobiliyat” emas, balki maxsus o‘qitilishi mumkin bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar majmui sifatida ko‘rsatadi. Xuddi shu tadqiqotchilar guruhining keyingi ishida ishlab chiqilgan kasbiy rivojlantirish dasturi faollik-asosli o‘qitish, hamkorlik va refleksiyani o‘z ichiga olishi lozimligi ta’kidlanadi, bunday dasturlar uzoq muddatli va kompleks bo‘lishi kerak [9; 1]. Fransuz tadqiqotchisi A. Doelrasadning tadqiqotida esa bo‘lajak o‘qituvchilarni dars tayyorlashda differensiatsiya qanday o‘rin tutishini o‘rganib, amaliy tajriba bilan nazariy bilim o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini aniqlagan [3; 1]. Amsterdam amaliy fanlar universiteti olimlari tomonidan o‘tkazilgan tizimli ko‘rib chiqishda (2010–2020-yillar oralig‘idagi 29 ta tadqiqot tahlili asosida) muvaffaqiyatli dasturlarning barchasida faol

o‘qitish, hamkorlik va refleksiya elementlari mavjudligi qayd etilgan [10; 1]. Bu xulosalar bo‘lajak o‘qituvchilarni individual yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etishga tayyorlashda amaliyotga yo‘naltirilgan, uzluksiz va refleksiv metodikaning zarurligini isbotlaydi.

Mahalliy pedagogik amaliyotda ham individual yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etishga oid qator qimmatli tajribalar to‘plangan. G.E. Saidovaning tadqiqotida boshlang‘ich ta’limda tarbiya darslarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari yoritilib, o‘qituvchidan bolalarga shaxsiy yondashuv, hamkorlik va hamijodkorlik asosida munosabatda bo‘lish, individuallashish orqali ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etish talab etilishi ta’kidlanadi [14; 118]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, individuallashtirish nafaqat metodik texnika, balki o‘qituvchining bolaga bo‘lgan umumiy pedagogik pozitsiyasi, ya’ni “hamkor-tarbiyachi” sifatidagi rolini anglatadi. U.E. Goyimovning tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mas’uliyatli va ko‘p qirrali faoliyati tahlil qilinib, yosh avlodni vatanparvar va odobli qilib tarbiyalashda o‘qituvchining shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ko‘rsatiladi [15; 1268]. Bu natija tarbiyaviy kompetensiyaning yana bir muhim jihatini — o‘qituvchining shaxsiy-namunaviy komponentini ochib beradi, chunki individual yondashuvni faqat texnik usullar darajasida emas, balki o‘qituvchi shaxsining o‘zi orqali amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. N.S. Xakimovaning tadqiqotida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv metodlar, o‘yinli texnologiyalar va muammoli ta’lim usullarining afzalliklari tahlil qilinib, bunday metodlarni qo‘llash o‘qituvchidan yuqori kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy namuna bo‘lish fazilatlarini talab qilishi ta’kidlanadi [18; 44]. Ushbu uch tadqiqot birgalikda O‘zbekiston pedagogik amaliyotida individual yondashuvning nazariy tan olinganligini, biroq uni tizimli, kompetensiyaviy asosda shakllantirish metodikasi hali yetarlicha ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi.

Yuqorida tahlil qilingan tadqiqotlarni umumlashtirish asosida tarbiya darslarini individual yondashuv asosida tashkil etish kompetensiyasining to‘rt komponentli tarkibiy modelini taklif etish mumkin: kognitiv komponent (o‘quvchining yosh, psixologik va

ijtimoiy xususiyatlarini bilish), motivatsion-qadriyatli komponent (har bir o‘quvchiga shaxs sifatida hurmat va empatik munosabat), texnologik-amaliy komponent (individuallashtirilgan tarbiyaviy metod va vositalarni loyihalashtirish va qo‘llash qobiliyati) hamda reflektiv komponent (o‘z faoliyatini tahlil qilish va uni doimiy takomillashtirish qobiliyati). Rossiyalik tadqiqotchi A.V. Gizatullinaning fikricha, individual yondashuvni amalga oshirish uchun o‘qituvchiga shunchaki o‘quvchini yaxshi ko‘rish va uning muammolarini qabul qilish yetarli emas — bunda o‘quvchining tipologik va yosh xususiyatlarini bilish, uning o‘zlashtirish qiyinchiliklari sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish usullaridan xabardor bo‘lish talab etiladi [17; 2]. Ushbu fikr yuqorida taklif etilgan kognitiv komponentning amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. I.V. Grebennikovaning tadqiqotida kompetentsiyaviy yondashuv talabaning mustaqil bilish faoliyatini loyihalashtirish va uni boshqarish orqali amalga oshirilishi ta’kidlanadi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda mustaqil loyiha ishlari va amaliy topshiriqlarning ahamiyatini ko‘rsatadi [19; 1]. S.P. Chumakovaning tadqiqotida esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni tarbiyalashga tayyorlashda “Pedagogika” fanining “Tarbiyaning nazariy asoslari” bo‘limi mazmunini kengaytirish va aniqlashtirish zarurligi asoslanadi [20; 1]. Laosda o‘tkazilgan tadqiqotda esa bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy-etik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv kursi ishlab chiqilib, uning samaradorligi tajriba-sinov orqali tasdiqlangan [11; 305]. Bu tajriba individual yondashuv asosidagi tarbiyaviy kompetensiyani shakllantirish uchun maxsus, maqsadli o‘quv kurslari zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda tarbiya darslarini individual yondashuv asosida tashkil etish kompetensiyasi murakkab, ko‘p komponentli va uzluksiz rivojlanib boruvchi kasbiy sifat hisoblanadi. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Rossiya, Belarusiya kabi MDH mamlakatlari hamda Xorvatiya, Niderlandiya, Fransiya, Ruminiya, Buyuk Britaniya kabi Yevropa davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlili ushbu muammoning umumjahon xarakterga ega ekanligini,

biroq uning yechimiga milliy pedagogik an’analar va qadriyatlar kontekstida yondashish zarurligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida individual yondashuv asosidagi tarbiyaviy kompetensiyaning kognitiv, motivatsion-qadriyatli, texnologik-amaliy va reflektiv komponentlardan iborat to‘rt qismli tarkibiy modeli ishlab chiqildi. Xalqaro tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar zarur: birinchidan, oliy pedagogik ta’lim dasturlarida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy-loyihaviy topshiriqlar hajmini oshirish; ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik amaliyot davomida real tarbiya darslarini individuallashtirilgan tarzda loyihalashtirish va tahlil qilishga jalb etish; uchinchidan, talabalarda o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish; to‘rtinchidan, milliy tarbiya an’analari (mahalla, oila, ustoz-shogird munosabatlari)ni zamonaviy individuallashtirish nazariyalari bilan uyg‘unlashtirish. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim muassasalarida “Pedagogika”, “Tarbiyaviy ish metodikasi”, “Yosh psixologiyasi” fanlarini o‘qitish jarayonida, shuningdek pedagog kadrlarning malakasini oshirish kurslarida amaliy qo‘llanma sifatida foydalanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida individual yondashuv asosidagi tarbiyaviy kompetensiyani baholashning aniq mezonlar tizimini ishlab chiqish hamda uni raqamli ta’lim vositalari yordamida rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganishni tavsiya etish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Колумбаева Ш.Ж. Қазақстанның болашақ мұғалімдерін тәрбие жұмысына даярлаудың әдіснамалық тәсілдері туралы // Абай атындағы ҚазҰПУ Хабаршысы, «Педагогика ғылымдары» сериясы. – 2021. – №2(70). – Б. 14–22.

2. Kudek Mirošević J., Radetić-Paić M. Planning and Application of Methods in Differentiated Instruction and Individual Approach to Pupils with Difficulties in Primary School // SOCIETY. INTEGRATION. EDUCATION. Proceedings of the International Scientific Conference. – 2021. – Vol. III. – P. 108–118.

3. Doelrasad A. La place de la différenciation dans la préparation de cours d’enseignants de cycle 3 // Éducation et Socialisation. – 2021. – №59.

4. Kondrashova L., Chuvasova N., Kondrashov M., Chuvasov M., Kondrashova K., Voronenko O. Moral and psychological readiness for pedagogical activities // Política e Gestão Educacional. – 2022. – Vol. 26, esp.1.

5. Zhang Q., Saharuddin N.B., Abdul Aziz N.A.B. The Analysis of Teachers’ Perceptions of Moral Education Curriculum // Frontiers in Psychology. – 2022. – Vol. 13. – Art. 967927.

6. Popovici A. Designing and Implementing Moral Education in Romanian Primary School // European Proceedings of Educational Sciences, EDU WORLD 2022. – 2023.

7. Tanriverdi Gokceli M.Z. An Investigation of Secondary School Teachers’ Perceptions and Experiences of Moral Education in England: PhD Thesis. – Brunel University London, 2023. – 320 p.

8. Meutstege K., Vrielink M., van Geel M., Visscher A.J. A cognitive task analysis of the teacher skills and knowledge required for differentiated instruction in secondary education // Frontiers in Education. – 2023.

9. Meutstege K., Van Geel M., Visscher A. Evidence-Based Design of a Teacher Professional Development Program for Differentiated Instruction: A Whole-Task Approach // Education Sciences. – 2023. – Vol. 13, №10. – P. 985.

10. Langelaan B.N. va boshq. Differentiating instruction: Understanding the key elements for successful teacher preparation and development // Teaching and Teacher Education. – 2024. – Vol. 140. – P. 1–14.

11. Asai K., Kuroda A., Aerarunchot S. Development of a training course to enhance the morality and ethics of student teachers at Champasack University, Lao PDR // Humanities, Arts and Social Sciences Studies. – 2024. – Vol. 24, №2. – P. 303–312.

12. Xamdamov Gofurovich N. Bo‘lajak maktab o‘qituvchisini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – B. 908–914.

13. Yuldasheva D. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mazmuni // Jamiyat va

innovatsiyalar. – 2024. – №5(4). – B. 230–236.

14. Saidova G.E. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya darslarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish // Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali. – 2022. – B. 117–121.

15. Goyimov U.E. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tarbiyaviy faoliyati xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – №3(5). – B. 1265–1272.

16. Yuldasheva M.E. Ta’lim jarayonida yosh o‘qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish – o‘qituvchi kompetentligini shakllantirishning asosiy omili // “Global dunyoda ilm-fan va ta’limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Qo‘qon, 2022. – B. 247–251.

17. Гизатуллина А.В. Подготовка будущих учителей к реализации индивидуального подхода в обучении. – Казань: Казанский федеральный университет, 2022.

18. Xakimova N.S. Innovatsion texnologiyalar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish // Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali. – 2024. – №17. – B. 44.

19. Гребенникова И.В. Формирование у будущих бакалавров начального образования профессиональной компетентности // Тамбовский государственный университет им. Г.Р. Державина, материалы науч.-практ. конф. – 2023.

20. Чумакова С.П. Подготовка будущих учителей начальных классов к воспитанию учащихся: компетентностный подход // Могилёвский государственный университет им. А.А. Кулешова, научный вестник. – 2022.